



Jizzax davlat
Pedagogika
Universiteti

TARIX FAKULTETI

HISTORY AND SOCIETY

ИСТОРИЯ И ОБЩЕСТВО
общественный электронный
Журнал

№ 1

JOURNAL
2024



TARIX VA JAMIYAT ILMIY ELEKTRON JURNAL

2024-yil 1-son Ijtimoiy-gumanitar fanlar
Tarix, falsafa, huquq, sotsiologiya, tarix metodikasi

Bosh muharrir: Aqchayev F.Sh. JDPU, t.f.b.f.d. (PhD),
dotsent.tarix fakulteti dekani

Bosh muharrir Pardayev A.H. JDPU, tarix, t.f.n.,
o‘rinbosari: dotsent

Mas’ul kotib: Karimova N.I JDPU, tarix,t.f.b.f.d (PhD)

TAHRIRIYAT A’ZOLARI:

1. Sagdullayev A.S. – tarix fanlari doktori, Akademik
2. Ahmedshina F.A. – tarix fanlari doktori, professor
3. Shodmonova S.B. – tarix fanlari doktori, professor
4. Ochilova B.M. – falsafa fanlari doktori, professor
5. Choriyev S. – falsafa fanlari doktori, professor
6. Tulenova G. J. – falsafa fanlari doktori, professor
7. Pardayev M.H. – tarix fanlari nomzodi, dotsent
8. G‘oyibov B.S. – tarix fanlari doktori (DSc), dotsent
9. Yarmatov R.B. – pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
10. Saidqosimov A.I. – f.f.b. fan doktori (DSc), professor
11. Amanullayev A. – f.f.b. fan doktori (PhD), dotsent
12. Toshboyev F.E. – tarix fanlari bo‘yicha fan doktori (PhD), professor
13. Mirkomilov B. – tarix fanlari nomzodi, professor
14. Kobzeva.O.P. - tarix fanlari doktori, professor
15. G‘ofurov J.I – tarix fanlari bo‘yicha fan doktori (PhD), dotsent
16. Hoshimxonov M.X. – f.f.b. fan doktori (DSc), dotsent
17. Valiyev A.X. – katta o‘qituvchi
18. Majidov A.S. – katta o‘qituvchi

Dizayner va sahifalovchi:

Karimova. N.I

MUNDARIJA

1. **MUNDARIJA** _____ 3-4
2. **TARIX FANINI O'QITISHDA TARIXIY-BADIIY ADABIYOTLARDAN FOYDALANISHNING MAZMUNI VA MOHIYATI.** Ahror Pardayev Hasanovich. Zokirova Muxlisa. _____ 5-9
3. **TURONNING BOHODIR VA DONO AYOLLARI.** Boltayev Abdurasul. Olim Mamarasulov. _____ 9-14
4. **SOHIBQIRON AMIR TEMUR VA UNING HARBIY MAHORATI.** Boltayev Abdurasul. Abdullayev Abdulaziz _____ 15-18
5. **MUSTAQILLIK YILLARIDA JIZZAX SHAHRINI ZAMONAVIY QIYOFAGA KELTIRISH.** Abdurasulova Dilbar To'raevna . Soatov Diyor _____ 19-24
6. **FRIGIYA PODSHOLIGI.** Xamrayev G'ayrat G'aniyevich. Jumaqulova Diyora Ergashboy qizi. _____ 25-29
7. **KUSHON DAVLATI TARIXI VA MADANIYATI XUSUSIDA.** O.Abdig'apparov. Nabiyeva Farmuda. _____ 29-34
8. **MISR MADANIYATINING O'ZIGA XOS JIHLTLARI.** O.Abdig'apparov. Naxalboyev Fozilbek. _____ 34-38
9. **TA'LIMGA MILLIYLIK RUHI ASOSIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH SAMARADORLIGIGA OID.** J.O.Saidov. Shukurova Maftuna Alisher qizi. _____ 38-43
10. **G'ARBIY YEVROPADA YANGI DAVR MADANIYATINING SHAKLLANISHI.** To'ychiyeva Dilnoza Ikromovna. Yo'ldoshev Bektemir Tursunboy o'g'li. _____ 44-49
11. **ABDURAHMON JEVACHI — ERK VA OZODLIK KURASHCHISI.** B.Mirkomilov. Sh.Boymatov. _____ 49-53
12. **РОЛЬ ЖЕНШИН В ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ (КОНЕЦ XIX И НАЧАЛО XX ВЕКА).** Каримова Наргиза Икрамовна. Акрамова Навбахор. _____ 53-58
13. **ПОЛИТИЧЕСКАЯ ЖИЗНЬ СРЕДНЕЙ АЗИИ В КОНЦЕ XIX - НАЧАЛЕ XX ВЕКА.** Каримова Наргиза Икрамовна. Бобокулова Севинч. _____ 58-64
14. **DAVLATCHILIK TARIXIMIZDA SIYOSIY TRANSFORMATSIYANING NAMOYON BO'LISHI** Jamshid.Eshboyevich. Toshboyev. Abdug'aniyev Jahongir. _____ 64-68
15. **TARIXIY ARXEOLOGIK MANBALAR VA UNING QADIM TARIXIMZDA TUTGAN O'RNI HAQIDA.**Furqat.Eshboyevich.Toshboev. R. Nosirova . _____ 69-73
16. **LARSA SHAHRI XUSUSIDA BA'ZI MULOHAZALAR.** Tugalov Boburjon Baxodir o 'g'li. Karimov Boburjon Bobomurod o'g'li. _____ 73-78
17. **ТОРГОВО-ЭКОНОМИЧЕСКАЯ И КУЛЬТУРНАЯ ЖИЗНЬ В СРЕДНЕЙ АЗИИ (В КОНЦЕ XIX - НАЧАЛО XX ВЕКА).** Каримова Наргиза Икрамовна, Машарипова Нодира. _____ 78-84
18. **TEMURIYLAR DAVRIDA SIYOSIY JARAYONLAR.** Burxonov Lazizjon Salimjon o'g'li. Nurullayeva Farangiz Dilshod qizi. _____ 85-89
19. **ТРАДИЦИИ И ОБЫЧАИ КАРАКАЛПАКОВ.** Каримова Наргиза Икрамовна Джумамуратова Инобат. _____ 89-93
20. **YOZMA MANBALARDA KESH VA NAXSHAB TARIXINING YORITILISHI** Jo'raqulova Nurmohi Ne'matulla qizi. Bobur Karimov. _____ 94-100
21. **KRIPTOGRAFIYA NIMA SABABDAN PAYDO BO'LDI YOXUD ILK SHIFRLASH NAMUNALARI.** Mirkomilov Baxtiyor.Axmedova Dildora Erkinjon qizi _____ 100-105

YOZMA MANBALARDA KESH VA NAXSHAB TARIXINING YORITILISHI

Jo'raqulova Nurmohi Ne'matulla qizi

Jizzax davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi

Bobur Karimov tarix fakulteti 1 –kurs talabasi

Annotatsiya: O'zbekistonning mustaqillikka erishishi joriy mamlakat hayotining ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy, ma'naviy va boshqa barcha jabhalarida to'la yangilanishlar joriy etilishini, butunlay yangi islohotlar amalga oshirilishini taqozo etdi. Mustaqillik yillarida Qashqadaryo hududida olib borilgan arxeologik izlanishlar natijasida, ajdodlarimiz hayot tarzi, madaniyati va ijtimoiy siyosiy hayotiga oid yangi ashyoviy manbalar qo'lga kiritilmoqda. Bu esa haqiqiy tariximizni o'rganishda muhim ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: Kesh, Naxshab, Qashqadaryo, rustoq, arxeologiya, arxeologik yodgorliklar.

Annotation: The achievement of independence of Uzbekistan required the introduction of complete updates and completely new reforms in the social, economic, political, cultural, spiritual and all other aspects of the current country's life. As a result of the archeological research conducted in the Kashkadarya region during the years of independence, new material sources related to the way of life, culture and social and political life of our ancestors are being obtained. This is important in learning our true history.

Key words: Kesh, Nakshab, Kashkadarya, rustok, archeology, archaeological monuments.

Аннотация: Достижение независимости Узбекистана потребовало проведения полного обновления и совершенно новых реформ в социальной, экономической, политической, культурной, духовной и всех других сторонах жизни нынешней страны. В результате археологических исследований, проведенных в Кашкадарьинской области в годы независимости, получены новые материальные источники, связанные с бытом, культурой и

общественно-политической жизнью наших предков. Это важно для изучения нашей истинной истории.

Ключевые слова: Кеш, Нахлад, Кашкадарья, Русток, археология, археологические памятники.

Mustaqillik yillarida Qashqadaryo hududida olib borilgan arxeologik izlanishlar natijasida, ajdodlarimiz turmush tarzi, madaniyati va ijtimoiy siyosiy hayotiga oid yangi ashyoviy manbalar qo'lg'a kiritilmoqda. Bu esa haqiqiy tariximizni o'rganishda muhim ahamiyatga ega. Kesh va Naxshab vohasi Qashqadaryo viloyatining asosiy qismini egallab, nafaqat O'zbekistonning, balki O'rta Osiyoning yirik va muhim tarixiy-geografik mintaqalaridan biri sanaladi. U O'zbekistonning Samarqand, Buxoro, Navoiy, Surxondaryo viloyatlari va Turkmaniston va Tojikiston Respublikasi bilan chegaralangan. Viloyat hududi, asosan, Qashqadaryo botig'ini o'z ichiga olgan, tabiiy chegaralari shimolda Zarafshon tizmalari va uning davomi bo'lgan Jom, Ingichka va Zirabuloq-Ziyoviddin suvayirg'ichlari, shimoli-sharqda, sharqda va janubi-sharqda Hisor tizmalari, janubda Sandikli va Nishon cho'llari orqali Amudaryo bilan chegaralangan bo'lsa, g'arbida Qarshi cho'llari orqali bepoyon Qizilqumga tutashib ketgan. Maydoni. 28,6 ming kv. km .

Qashqadaryo vohasining iqlim sharoiti kontinenta bo'lib, qishi nisbatan yumshoq, yozi uzoq (155-160 kun), issiq, quruq. Yanvarning o'rtacha temperaturasi 0,2° dan 1,9° gacha, iyulniki 28°-29,5°. Eng yuqori temperatura 45-50°. Eng past temperatura -20°. Yiliga tekisliklarda 290-300 mm, adirlarda 520-550 mm, tog'larda 550-650 mm yog'in tushadi. Yog'in, asosan, bahor va qish oylarida yog'adi, yozda garmsel esadi. Tog'larda turg'un qor qoplami hosil bo'ladi (2-6 oy). Vegetatsiya davri tekisliklarda 290-300 kungacha cho'ziladi¹.

Sug'oriladigan yerlarning tuprog'i, asosan, to'riq va och bo'z tuproqlar. Tog'oldi zonalarida qizg'ish tuproqli hududlar, daryolar bir-birlariga yaqin masofalarda joylashganlari bois, Kitob-Shahrisabz vohasida ko'proq qumoq tuproqli hududlar mavjud. Tog'larda balandlik mintaqalari bo'ylab bo'z tuproqlar

tarqalgan. Tabiiy florasi 1200 ga yaqin o'simlik turidan iborat. Viloyatda hozirgi kunda 76,6 ming gektar o'rmon mavjud. Oldingi davrlarda o'rmonlarning maydoni bir necha baravar ko'p bo'lgan. O'rmonlarning asosiy katta qismini tog'li hududlarda archa, cho'l zonalarida esa saksovulzorlar tashkil etadi. Tog' yon bag'irlari ko'plab turdagi turli xil o'simliklari bilan qoplangan, shuningdek, butazorlar ham bor. Tog' o'rmonlarida archadan tashqari, bodom, pista, do'lana, jiydazorlar serob hisoblanadi. Tog' ustilarida na'matak, zirk, chakanda, anzur piyozi, qora zira va boshqa o'simliklar o'sadi. Tog'li va tog'oldi hududlaridagi soylar, irmoqlar bo'ylarida va tekislikdagi sug'oriladigan maydonlarda o'nlab xil va yuzlab turdagi mevali daraxtlar o'sadi va ularning mavjud bo'lganligi bu vohada juda qadimdan oq dehqonchilik va bog'dorchilik madaniyati yuksak darajada bo'lganligini ko'rsatadi.

Hisor va Zarafshon tog'larining abadiy muzliklari, bu tog'lar bag'ridagi yuzlab katta-kichik vodiylar, ularda ko'z ochgan minglab buloqlar, buloqlar suvlaridan hosil bo'luvchi yuzlab soylar, soylarning qo'shilishidan hosil bo'lgan Qashqadaryo, Jindaryo, Oqsuv, Tanhoz, Qizildaryo (Yakkabog'daryo, Qorabog'daryo) kabi daryolar, Qashqadaryoning o'ng irmoqlari bo'lmish Qaynarsoy-Oqsuv, Sho'robsoy, Makridsoy, Ayoqchisoy, Qalqama-Qumdaryo kabi kichik daryo va soylar shitob bilan pastga oqib Kesh (Kitob-Shahrisabz)ning tog'li, tog'oldi va ulkan tekisliklardagi serhosil hududlarini, ularning qo'shilishidan hosil bo'lgan Qashqadaryo esa oxir-oqibat bepoyon Qarshi (Naxshab-Nasaf) vohasining kaftdek tekis beaded kengliklarini obi-hayot bilan ta'minlab kelganlar. Bundan bir necha ming yil muqaddam mana shu daryolar va soylar etaklarida tabiatning bebaho in'omi bo'lgan oqar suvlarni boshqarish, insonlarning yashashlari, buyuk madaniyatlar yaratishlari uchun imkon beruvchi sun'iy sug'orish tizimlari yaratilgan. Qashqadaryo vohasining Yerqo'rg'on, Qal'ayi Zohaki Moron, Shulluktepa, Kasbitepa, Ko'hna Fazli, Kosontepa, Tallisortepa, Oltintepa, Kofirtepa, Kojartepa, Obrontepa, Bobokenttepa, Parchaqal'atepa, Kaxlaktepa, Qarshi qal'asi, Zanjirsaroy, Podayotoqtepa, Uzunqir, Sangirtepa, Qalandartepa, Kishmishtepa, Chandaroqtepa, Qoratepa,

Chimqo‘rg‘ontepa, Oltintepa, Qamaytepa, Kesh–Shahrisabz qal’asi, Xo‘ja Buzurgtepa, Xo‘ja Rummostepe, O‘liktepa, Saubog‘tepa, Lihlitepa kabi yirik shaharlar xarobalari O‘zbekistonda o‘rta asrlar shaharsozligi tarixini o‘rganish uchun muhim manba hisoblanadi¹.

Tabiiy sharoitning qulay bo‘lganligi tufayli, qadimdanoq O‘rta Osiyo shaharlar va qishloqlarini bir-biridan ajratish O‘rta Osiyoda shaharsozlik madaniyati shakllangandan buyon muammo bo‘lib kelmoqda. Movarounnahrda tashrif buyurgan arab sayyohlari shahar va qishloqlarni ularda jome’ masjidlarining mavjud yoki mavjud emasligiga qarab ajratganlar. Bu mezon uzoq davom etmagan, chunki tezda Movarounnahrning ko‘plab yirik qishloqlarida ham jome’ masjidlari qurilishi boshlangan.

Naxshab vohasida qadimda va o‘rta asrlarda faoliyat ko‘rsatgan ulkan shaharlari xarobalari bo‘lmish arxeologik yodgorliklar dastlab Rus imperiyasi ziyoli harbiy zobitlari bilan birga bu o‘lkaga qadam qo‘ygan rus olimlarini ham qiziqtirgan. Jumlanan, Qashqadaryoning qadimiy shaharlaridan biri hisoblangan Shulluktepaga turli yillarda V.V.Krestovskiy (1883 yil), B.N.Litvinov (1885 yil), D.N.Logofet (1913 yil), I.A.Kastane (1916 yil), L.A.Zimin (1916 yil), L.I.Albaum va A.I.Terenojkin (1946-yil) kabi mutaxassislar tashrif buyurganlar.

Qarshi vohasining arxeologik jihatdan tadqiq etilishi S.K.Kabanovning ilmiy faoliyati bilan bog‘liq. Olimning uzoq yillik tadqiqotlari davrida vohaning 120 dan ortiq yodgorliklari davriy, topografik jihatdan ma’lum tizimga solingan. Bu davrda Chimqo‘rg‘on suvombori hududida ham keng miqyosda arxeologik qazishma ishlari o‘tkazilgan.

Qarshi vohasi arxeologik yodgorliklarining kompleks o‘rganilishi 1970 yilda O‘zFA Arxeologiya instituti tashkil etilgandan keyin boshlandi. 1973 yildan 1980 yillarning oxirigacha Yerqo‘rg‘onda shahar arki, mudofaa devorlari, zardushtiylik ibodatxonasi va dahmasi, hokimlari saroyi, kulollar va temirchilar mahallalari o‘rganilgan.

1971 yildan boshlab voha hududining Shulluktepa, Tallisortepa, Kofirtepa, Oltintepa, Kosontepa kabi o‘rta asrlar davri yodgorliklarda arxeologik tadqiqotlar

olib borilgan¹. 1981 yilda Kosontepada kengmiqyosda arxeologik qazishma ishlari olib borilgan.

1993-1996 yillarda A.A.Raimqulov tomonidan Muborak tumani hududida joylashgan, 1334-1336 yillarda Chig'atoy ulusining so'nggi xonlaridan hisoblangan Qozonxon Sulton tomonidan bunyod etilgan Zanjir Saroy, Zanjir Dumaloq saroy xarobalari, Xo'ja Ravshan qabristoni yonida va O'tror qishlog'i hududida joylashgan Chig'atoylar davri qishloqlar xarobalari o'rganilgan. Shu davrda Qarshi qal'asida ham muhim ashyoviy materiallar qo'lga kiritilgan. 2013 yilda esa Chiroqchi tumani hududida Xazor Buqo yodgorligi majmuasi aniqlangan.

Kesh va Naxshabning ayrim yodgorliklarida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar davrida qo'lga kiritilgan kulolchilik, temirchilik, shishasozlik, misgarlik va boshqa hunarmandchilik turlari mahsuli bo'lgan arxeologik artefaktlardan bu vohalar shaharlari va qishloqlaridagi hunarmandchilik yo'nalishlarining umumiy xususiyatlarini yoritishda foydalanilgan.

Janubiy Sug'dning o'rta asrlar davri bo'yicha o'tgan asrning oxirgi choragida olib borilgan maxsus tadqiqotlar bu davrga oid madaniy qatlamlar va me'moriy inshootlar qoldiqlari vohada nisbatan kam uchraydi.

Kesh-Shahrisabz qal'asi devorlarida olib borilgan qazishmalar xususida. Kesh-Shahrisabzning qal'a devorlari O'zbekistonning eng noyob arxeologik yodgorliklaridan biridir. Shahrisabz hisorining uzunligi 1680 m, eni esa 1200 dan 1250 metrgacha, shaharning umumiy maydoni 210 ga bo'lib, hozirgi kunlargacha qal'a devorining ayrim qismlarigina kuchli yemirilgan holatda yetib kelgan.

Qal'a devorlarida 1963-1964 yillarda ToshDU (hozirgi O'zbekiston milliy universiteti) O'rta Osiyo arxeologiyasi kafedrası Kesh arxeologik-topografik ekspeditsiyasi tomonidan (KATE) Z.I.Usmanova boshchiligida ilk bora arxeologik qazishmalar olib borilgan. Qo'lga kiritilgan ma'lumotlarga ko'ra, mudofaa devorlarining eng baland saqlangan joyi 11-metrni, qalinligi esa 3,5-9 metrni, mudofaa burjlar bilan birgalikdagi qalinligi esa 17,5 metrni tashkil etgan. Devorlarning umumiy uzunligi 5,6 km bo'lib, unda jami 70 ta mudofaa burjlari hisobga olingan. Shu davrda shaharning shimoliy Kitob darvozasi yaqinida

tadqiqot olib borilgan va qal'a ilk qurilgan davrida uning devori 7-13 sm qalinlikdagi qatlamli paxsadan bunyod etilganligi aniqlangan. Afsuski, ushbu tadqiqotlardan keyin oradan o'tgan ellik yil davomida bu burjlarning deyarli barchasi buzilib ketgan¹.

1982 yilda qazishmalar yana davom ettirildi. Ushbu davrda A.Raimqulov tomonidan Oqsaroy bosh peshtoqining shimol tomonida, Kitob darvozasi yaqinida mudofaa devorlari ko'ndalangiga kesib o'rganildi. Kesma toza yer qatlamigacha qazib tushildi. Devorning yuqori qismida 2 m balandlikda guvalakdan qilingan ta'mir devor mavjud. Mudofaa devori balandligi 120-130 sm bo'lgan maxsus shibbalangan tuproq qatlamidan hosil qilingan mustahkam poydevor ustiga bunyod qilingan. Poydevorning ostida 1 m qalinlikdagi madaniy qatlam bo'lib, uning tarkibi XI-XII asrlarga oid sopol parchalaridan iborat. Bu madaniy qatlamning ostida esa toza yer qatlami mavjud. Qal'a devorining ilk qurilgan davrdagi qalinligi 7 m bo'lgan. Ushbu tadqiqotlarning natijalari keyinroq ekspeditsiya rahbarlari tomonidan chop etilgan (Dresvyanskaya, Lunina, Sultanov, Usmanova, 1993, s.19).

Ushbu davrda Oqsaroyning bosh peshtoqidan 25 m janubi-sharqda 2x2 m hajmdagi shurf solingan va bu yerda saroy hovlisi sathiga yotqizilgan mozaik pol hamda saroyning tashqi devorlari qoldiqlari aniqlangan. Devor ostidagi madaniy qatlamdan XI-XII asrlarga xos bo'lgan sopol buyumlarning kattagina majmuasi qo'lga kiritilgan. Bu topilmalar Oqsaroy me'moriy majmuasi XI-XII asrlarga oid madaniy qatlamlar ustiga qurilganligini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent, 2017.
2. Mirziyoev Sh.M. Vatanimiz taqdiri va kelajagi yo'lida yanada hamjihat bo'lib, qat'iyat bilan harakat qilaylik. «Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash - davr talabi» mavzusidagi anjumanda

soʻzlangan nutq. 2017 yil 15 iyun. Milliy taraqqiyot yoʻlimizni qatʼiyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga koʻtaramiz. Asarlar 1 jild,. Toshkent, 2017.

3. Asqarov A.A. Mustaqillik yillarida tarix, arxeologiya va etnologiya. “Oʻzbekistonda ijtimoiy fanlar” №4, 1996.
4. Asqarov A.A. Oʻzbek xalqining kelib chiqish tarixi. Toshkent, 2015.
5. Berdimurodov A.E., Suyunov S.S., Soriev X.Ya. Oʻzbekistonning arxeologik yodgorliklari katalogi. 1-tom. Samarqand viloyati, 2-qism. Nurobod tumani. Samarqand, 2015.
6. Ibn Havqal. “Kitob surat al-ard. Movarounnahr”. Toshkent, 2011.
7. Ibrohimov N. Ibn Battuta va uning Oʻrta Osiyoga sayohati. Toshkent, 1993.